FARG‘ONA VILOYATIDA AGROTURIZM RIVOJLANISHINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

[a]Abdullayeva Hamidaxon Rustamjon qizi
[a]Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatida agroturizm rivojlanishining hududiy xususiyatlari va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyatning tabiiy-geografik sharoiti, agrar ixtisoslashuvi hamda turistik resurslarining agroturizmni rivojlantirishdagi o‘rni baholangan. Shuningdek, sohaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar va mavjud muammolar aniqlanib, agroturistik salohiyatdan samarali foydalanish hamda hududlarda agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *agroturizm, qishloq turizmi, Farg‘ona viloyati, hududiy xususiyatlar, agroturistik salohiyat, agrar ixtisoslashuv, turistik resurslar, rivojlanish istiqbollari.*

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo turizm sanoatida qishloq joylariga yo‘naltirilgan, tabiat va an’anaviy turmush tarziga asoslangan sayohat turlariga talab ortib bormoqda. Shu yo‘nalishlardan biri – agroturizm bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi faoliyati olib boriladigan hududlarda sayyohlarga dam olish, tabiat bilan muloqot qilish va dehqonchilik an’analari bilan tanishish imkonini beradi. Xalqaro adabiyotlarda agroturizm amaldagi fermer xo‘jaligi yoki boshqa qishloq xo‘jaligi muhitida tashkil etiladigan, fermer daromadini diversifikatsiyalashga xizmat qiluvchi turizm shakli sifatida talqin qilinadi [1, B. 754]. Bu faoliyat nafaqat qo‘shimcha iqtisodiy manba yaratadi, balki qishloq aholisi bandligini ta’minlash, an’anaviy hunarmandchilik va madaniyatni saqlash hamda hududlarning teng rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi [2, B. 216].

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish orqali xorijiy sayyohlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga yetkazish, respublikada 30 ta yirik turizm klasterini tashkil etish vazifalari belgilangan [5]. Bunday vazifalarni amalga oshirishda har bir hududning o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik salohiyatidan oqilona foydalanish talab etiladi. Tabiiy boyliklari, qadimiy dehqonchilik an’analari va boy madaniy merosi bilan ajralib turuvchi Farg‘ona vodiysi mamlakatda agroturizmni rivojlantirish uchun eng istiqbolli mintaqalardan biri hisoblanadi [4]. Shu boisdan viloyat agroturizmining hududiy asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish va uni tashkil etish yo‘nalishlarini belgilash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Agroturizm tushunchasi ilmiy adabiyotda turlicha talqin qilinadi va ko‘pincha qishloq turizmi (rural tourism) hamda ekoturizm tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi. Aksariyat tadqiqotchilar agroturizmni qishloq turizmining tarkibiy qismi sifatida, uning o‘zagi sifatida esa bevosita qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liqlikni e’tirof etadilar. S. Phillip, C. Hunter va K.Blackstock agroturizmni aniqlashda uchta asosiy mezonni ajratadilar: faoliyatning amaldagi (ishlayotgan) fermer xo‘jaligida tashkil etilishi, sayyoh bilan qishloq xo‘jaligi faoliyati o‘rtasidagi aloqaning

xususiyati hamda taqdim etiladigan tajribaning haqiqiyligi (autentikligi) darajasi [1, B. 755]. Ushbu mezonlar asosida mualliflar agroturizmning beshta nazariy turini ajratib chiqqan bo‘lib, bu tasnif keyingi tadqiqotlar uchun uslubiy asos vazifasini o‘tagan.

Agroturizm bir vaqtning o‘zida bir necha vazifani bajaradi: iqtisodiy (fermer daromadini oshirish, ish o‘rinlari yaratish), ijtimoiy (qishloq aholisi turmush darajasini ko‘tarish, migratsiyani kamaytirish), ekologik (tabiiy landshaftlarni asrash) va madaniy (an’ana hamda hunarmandchilikni saqlash) [3, B. 168]. Amaliyotda agroturizm turli shakllarda namoyon bo‘lib, ularning har biri muayyan tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarga tayanadi. Farg‘ona viloyatida bog‘dorchilik, uzumchilik, hunarmandchilik hamda tog‘ oldi hududlarining rekreatsion imkoniyatlari agroturizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Agroturizmning asosiy shakllari va ularni viloyat hududida rivojlantirish imkoniyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Agroturizmning asosiy shakllari va Farg‘ona viloyatida rivojlantirish imkoniyatlari


Agroturizm shakli	Asosiy mazmuni	Farg‘ona viloyatidagi rivojlantirish imkoniyatlari
Fermer xo‘jaliklarida dam olish (Farm-stay)	Sayyohlarning fermer va dehqon xo‘jaliklarida yashashi, qishloq turmush tarzi bilan tanishishi	Bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida mehmon uylarini tashkil etish
Agro-gastranomik	Mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va milliy taomlarni tayyorlash hamda tatib ko‘rish	Meva-sabzavot mahsulotlari, milliy taomlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosidagi gastronomik dasturlar
Bog‘ va uzumzor turizmi (Pick-your-own)	Sayyohlarning hosil yig‘ish va agrotexnik jarayonlarda ishtirok etishi	Olma, o‘rik, gilos, anor va uzum yetishtiriladigan bog‘ hamda uzumzorlarda mavsumiy turistik faoliyatlarni tashkil etish
Hunarmandchilik va etnografik agroturizm	Qishloq aholisi an’analari, urf-odatlari va hunarmandchilik faoliyati bilan tanishish	Rishton kulolchilik maktabi, Marg‘ilon ipakchilik an’analari hamda qishloq hunarmandchiligi bilan bog‘liq turistik dasturlar
Ekologik-agroturizm	Tabiiy landshaftlar va qishloq xo‘jaligi faoliyatini uyg‘unlashtirgan dam olish turi	Shohimardon, So‘x va tog‘ oldi hududlaridagi bog‘dorchilik xo‘jaliklari negizida ekoturistik marshrutlar tashkil etish
Ta’limiy agroturizm	Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish	Fermer xo‘jaliklari, issiqxonalar va ilmiy-tajriba uchastkalariga ekskursiyalar uyushtirish

muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyati agroturizmning deyarli barcha shakllarini rivojlantirish uchun zarur resurslarga ega. Ayni paytda bu resurslarning aksariyati hali to‘liq o‘zlashtirilmagan va ulardan turizm maqsadida foydalanish dastlabki bosqichda turibdi [4].

Farg‘ona viloyatining agroturistik salohiyati, eng avvalo, uning qulay tabiiy-geografik sharoiti bilan belgilanadi. Vodiy uch tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, mintaqa iqlimi issiq va quyoshli kunlarning ko‘pligi, vegetatsiya davrining uzunligi bilan tavsiflanadi. Suv resurslarining mavjudligi, unumdor tuproqlar va relyefning xilma-xilligi – baland va o‘rtacha tog‘lardan tortib sug‘oriladigan tekisliklargacha – turli xil qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlari va shu asosda agroturistik mahsulotlar yaratish imkonini beradi [4]. Vodiyda turistik mavsumni Navro‘zdan kuzgi hosil yig‘im-terimigacha tashkil etish mumkin bo‘lib, may va oktyabr oylari eng qulay davr hisoblanadi [4].

Viloyatning agrar ixtisoslashuvi agroturistik salohiyatning asosiy omillaridan biridir. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatda jami 11 349 ta fermer xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 6 651 tasi yoki 58,6 foizi bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan [8]. Bu ko‘rsatkich viloyat qishloq xo‘jaligida mevali bog‘lar va uzumzorlarning yetakchi o‘rin tutishini, ayni vaqtda agroturizm uchun eng qimmatli resurs – mahsuldor bog‘ landshaftlarining keng tarqalganini bildiradi. Fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuv tarkibi 1-grafikda keltirilgan.



1-grafik. Farg‘ona viloyati fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuv tarkibi (2024-yil 1-yanvar holatiga).

Manba: [8] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-grafikdan ko‘rinadiki, viloyat fermer xo‘jaliklarining yarmidan ko‘pi aynan bog‘-uzumchilik yo‘nalishida ixtisoslashgan. Bunday agrar tuzilma agroturizmni rivojlantirish uchun tabiiy zamin yaratadi, chunki gullagan bog‘lar, hosil mavsumi va uzumzorlar sayyohlar uchun jozibador tomosha hamda tajriba manbai hisoblanadi. Shu tariqa viloyatda «tabiiy sharoit – agrar ixtisoslashuv – agroturistik imkoniyat» ko‘rinishidagi mantiqiy bog‘lanish yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tabiiy va agrar omillar bilan bir qatorda, Farg‘ona viloyatining boy madaniy-tarixiy merosi agroturistik mahsulotni boyituvchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Marg‘ilon shahri jahonga mashhur ipakchilik markazi sifatida atlas va adras ishlab chiqarish an’analarini, Rishton esa o‘ziga xos ko‘k-yashil sirli kulolchilik maktabini saqlab kelmoqda. Shohimardon va So‘x kabi tog‘ hududlari tabiat manzaralari hamda an’anaviy bog‘dorchilik bilan uyg‘unlashgan dam olish imkoniyatlarini taklif etadi. Bu ob’ektlarni qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari bilan birlashtirib, kompleks agroturistik marshrutlar shakllantirish mumkin [4].

Viloyatda agroturizmning salohiyati yuqori bo‘lsa-da, uni amaliy rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, qishloq joylarida zamonaviy turistik infratuzilma – joylashtirish ob’ektlari, yo‘llar va xizmat ko‘rsatish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Ikkinchidan, agroturizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi fermer xo‘jaliklarining marketingi va raqamli targ‘iboti sust bo‘lib, mahsulot xalqaro bozorga yetarlicha chiqarilmagan. Uchinchidan, sohada malakali kadrlar – gid, tarjimon va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar yetishmasligi sezilarli. Bundan tashqari, agroturistik faoliyatning huquqiy-me’yoriy asoslari va sertifikatlash tizimi hali to‘liq shakllanmaganligi hamda faoliyatning mavsumiyligi sohani rivojlantirishni cheklab turibdi [6].

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda viloyatda agroturizmni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan aniq qadamlar tashlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi PQ–5-sonli qaroriga muvofiq, Farg‘ona viloyatida umumiy maydoni 2 396 gektarni tashkil etuvchi turistik-rekreatsion zonani barpo etish belgilangan. Mazkur loyiha doirasida Farg‘ona tumanidagi «Vodil» malina agroturizm klasterini turistik obyekt sifatida rivojlantirish hamda malina plantatsiyalari negizida turistik va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini shakllantirish rejalashtirilgan [7]. Bunday loyihalar xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasiga tayanadi va agroturizmni hududiy tashkil etishning amaliy namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Istiqbolda viloyatda agroturizmni rivojlantirish uchun bog‘-uzumchilik xo‘jaliklari negizida agroturistik klasterlar tashkil etish; mahalliy hunarmandchilik (Marg‘ilon, Rishton) va dehqonchilik an’analarini yagona marshrutlarga birlashtirish; fermerlar uchun maxsus o‘quv va sertifikatlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish hamda raqamli platformalar orqali agroturistik mahsulotni targ‘ib etish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

XULOSA

Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizmni uyg‘unlashtiruvchi faoliyat turi sifatida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va madaniy merosni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tajriba agroturizmning fermer xo‘jaligi, sayyoh bilan aloqa darajasi va tajriba autentikligiga ko‘ra turli shakllarda tashkil etilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Farg‘ona viloyati qulay tabiiy sharoiti, boy agrar resurslari va madaniy-tarixiy merosi bilan agroturizmning deyarli barcha shakllarini rivojlantirishga qodir hududdir. Viloyat fermer xo‘jaliklari tarkibida bog‘dorchilik va uzumchilikning yuqori ulushga (58,6%) ega ekanligi agroturizm uchun tabiiy va mustahkam zamin yaratadi. Ayni paytda sohani rivojlantirishda infratuzilma, marketing, malakali kadrlar va me’yoriy baza bilan bog‘liq muammolarni hal etish talab qilinadi. Viloyatda agroturistik klasterlar tashkil etish, marshrutlarni birlashtirish va fermerlarni

tayyorlash orqali bu salohiyatni amalga oshirish hamda mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Phillip S., Hunter C., Blackstock K. A typology for defining agritourism // Tourism Management. – 2010. – Vol. 31, № 6. – P. 754–758.

2. Tew C., Barbieri C. The perceived benefits of agritourism: the provider’s perspective // Tourism Management. – 2012. – Vol. 33, № 1. – P. 215–224.

3. Barbieri C., Mshenga P.M. The role of the firm and owner characteristics on the performance of agritourism farms // Sociologia Ruralis. – 2008. – Vol. 48, № 2. – P. 166–183.

4. Yakubjonova Sh., Amanboeva Z., Saparova G. Possibilities of organizing agro-touristic routes in the Fergana Valley, Uzbekistan // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 258. – Article No. 06068. – 9 p.

5. O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023.

6. Eshtaev A. O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari: monografiya. – Toshkent, 2023. – 256 b.

7. Farg‘ona turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi PQ-5-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2026.

8. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Fermer xo‘jaliklari reyestri (22-shakl) ma’lumotlari, 2024-yil 1-yanvar holatiga. – Farg‘ona, 2024.